Mir Arab madrasasi

Buxorodagi me`moriy yodgorlik. Buxoro xoni mumtoz shoir Ubaydullaxon in`om etgan mablag’ hisobiga Shayx Abdulla tomonidan qurilgan (1530—36). Mir Arabning asl ismi Sayyid Abdulloh. Amir 22 yoshida Samarqandga kelib Xoja Ahrorga shogird tushgan. Turkistonning Sabron (Savron)ida 2 koriz (yer osti arig’i) qazdirgan, suv chiqargan, qal`a bino etib, Shofirkon, Vobkent, G’ijduvon tumanlarida ko’p joylarni obod qilgan (Shofirkonda Mir Arab qal`asi saqlangan). U naqshbandiya tariqatining rivojlanishiga katta hissa qo’shgan. Madrasa qurilishini nihoyasiga yetkaza olmagan, 1536 yyil boshida Mir Arab vafot etgan va uning vasiyatiga ko’ra kuyovi Shayx Zakariyo qurilishni oxiriga yetkazgan.

Xattot Mirali Fathobodiy — Buxoriy ushbu forsiy qit`ani Madrasa darvozasiga yozgan: "Mir Arab faxri Ajam onki kard — Madrasai olii bas bul ajab. Bul ajab on ast ki tarixi u: Madrasai olii Mir Arab". Madrasa Minorai kalonning qarshisida joylashgan. Bosh tarzi ulkan peshtokli, darvozasi orqasida 5 gumbazli miyonsaroy, ikki yonida baland gumbazli keng darsxona va masjid, go’rxona joylashgan. Koshinkori naqshlar yozuvlar bilan uyg’unlashgan (saqlanmagan). Go’rxona ichi gumbaz osti bag’ali qalqonsimon muqarnasli, shipi va devorlari ganch o’ymakorligida bezatilgan, izorasi rangbarang koshinli. Go’rxonada Ubaydullaxon (1537 y. v. e.)ning yog’ochdan xotamkori usulida ishlangan sag’anasi va Mir Arab, uning qarindoshlari qabrlari bor.

Madrasaning umumiy tarhi 68,5x51,8 m, hovli 35,4x31,3 m, darsxona 8x8 m. Hovlisi to’rtburchak shaklida bo’lib, atrofini oldi ravokli, ikki oshyonli 114 hujra o’rab turadi. Tomonlar o’rtasidagi 4 baland peshtokli darsxona — ayvon hovli mahobatini oshiradi. Tuzilishi jihatidan naqshinkor jan. peshtoqning dastlabki qiyofasi saqlanib qolgan, bu naqshlarning tarkibiy qismida yulduzsimon bezaklar uchraydi. Undagi bezaklarning saqlanib qolgan ayrim parchalaridan naqshlar g’oyat nafis va nozik bo’lganligini bilish mumkin. Rivoyatlarga kura, Madrasa asosi chuqur qilinib, tog’ toshlari bilan mustahkamlangan, qor, yomg’ir suvini qochirish uchun tazarlar ishlangan, ular orqali suvlar shahar qo’rg’onidan tashqariga chiqarilgan. Mir Arab madrasasida O’rta Osiyo diniy maktablari qurilishiga xos an`anaviy loyiha va mujassamot o’z ifodasini topgan. Buxoroning 2500 y.ligi munosabati bilan Madrasa peshtog’i va gumbazlaridagi to’kilib ketgan koshinkori naqshlar va yozuvlar qayta tiklandi. Mir Arab madrasasi diniy o’quv yurti. Madrasada talabalar islom dinidan saboq oladilar. O’zbekiston musulmonlari idorasi tasarrufida. Sho’rolar davrida faoliyati vaqtincha to’xtatilgan, 1945 yilda yana tiklangan. O’quv muddati 4 yil. O’quv yurti kunduzgi bo’limiga 15 yoshdan 35 yoshgacha bo’lgan o’rta va to’liqsiz o’rta ma`lumotli kishilar qabul qilinadi. Diniy fanlar hamda umumta`lim fanlari o’qitiladi. Talabalarga arab, ingliz, rus va fors tillari ham o’rgatiladi. Darslar o’zbek va arab tillarida olib boriladi.

«Мир Араб» мадрасаси

Бухородаги “Мир Араб” мадрасаси шаҳар марказида, аниқроқ қилиб айтилса, қадимий Шаҳристонда жойлашган бўлиб, икки улкан гумбази билан бошқа тарихий бинолардан ажралиб туради. Мадрасанинг кириш қисми кунботар томондадир. Дарвоза улкан пештоқ остида жойлашган. Бино тўрт қаватдан иборат бўлиб, унда 114 та хона бор. Мадрасанинг ички қисми ҳам ажойиб тарзда лойиҳалаштирилган. Ҳужраларни тўртта улкан пештоқ ажратиб туради.




Мадраса биносини милодий 1530–1536 (ҳижрий 936–942) йиллари шайх Мир Араб қурдирган. Халқ орасида “Мир Араб” номи билан машҳур бўлган бу олимнинг асл исми Саййид Абдуллоҳ Яманийдир. У йигирма икки ёшида илм излаб Самарқандга келади ва Хожа Аҳрор Валийга шогирд тушади. Хожа Аҳрор Валий вафотидан сўнг унинг ўғли Муҳаммад Бакр Саййид Абдуллоҳни Бухоро амири Убайдуллоҳхон билан таништиради. Тез орада у илм-маърифати билан эл орасида танилади, ҳурмат қозонади.



Мадраса қарийб беш асрдан буён Шарқу Ғарбга илм нурини таратишдек эзгу йўлда хизмат қилаётир. Фақат ўтган асрнинг 30-йилларида унинг фаолияти бир неча йил тўхтатиб қўйилди. 1943 йилга келиб, собиқ иттифоқда ягона Ислом ўқув юрти

сифатида яна иш бошлади. Замонасининг етук олимларидан Миён Малик, у кишининг шогирди, Ўрта Осиё ва Қозоғистон мусулмонлари диний назорати асосчиси Эшон Бобохон ибн Абдулмажидхон, Қози Асқар, Домла Икромча, Сулаймон Хўжа, Домла Изомий, Домла Қосим, Мухторжон Абдуллаев, Абдуғани Абдуллаев, Юсуфжон Шокиров ва бошқалар шу мадрасанинг талабалари бўлишган. Илм масканида қўшни Афғонистон, Эрон, Марказий Осиё мамлакатлари, Россия ва Хитойдан ҳам жуда кўп талабалар таҳсил олишган. Улар орасида замонасининг етук олимлари бўлиб етишганлари оз эмас.



Ҳозир билим юртида юздан ортиқ талаба ўқийди. Уларга йигирма уч нафар малакали мударрис ва ўқитувчи таълим-тарбия беради. Ўқиш муддати тўрт йил. Мадрасани битирувчиларга исломшунос, имом-хатиб ва араб тили ўқитувчиси мутахассисликлари бўйича диплом берилади.

Ўқув дастури Давлат таълим стандарти талаблари асосида ташкил этилган. Талабалар Қуръони Карим, ҳадис, фиқҳ, Ислом тарихи, араб тили, сарф ва наҳв, шунингдек, она тили ва адабиёт, инглиз тили, физика-математика, жуғрофия, астрономия ҳамда информатика каби фанларни ўрганишади. Замон талабларига жавоб берадиган синфхоналар, интернетга уланган компьютер маркази талабалар хизматида.

Мадраса кутубхонасида йигирма мингдан ортиқ китоб бор. Айниқса, кутубхонанинг нодир қўлёзмалар бўлимида сақланаётган манбалар маънавий меросимиз дурдоналари саналади.

Талабаларнинг ҳунар эгаллашлари, соғлом ва бақувват бўлишларига ҳам жиддий эътибор берилади. Улар дарсдан бўш вақтларида волейбол, футбол, стол тенниси ва бошқа тўгаракларга қатнашишади. Бошқа ўқув юртлари билан турли беллашувлар, танловлар ўтказилиши талабалар билим-кўникмаларини синашда қўл келмокда.

– Тошкент ислом университети, Имом Бухорий номидаги Тошкент ислом институти ва бошқа олий ўқув юртлари талабалари сафида йилдан-йилга мадрасамиз битирувчилари кўпайиб бораётгани биз устозлар учун шарафдир, – дейди билим юрти мудири Муҳиддин Нўъмонов. – Мақсадимиз – ёшларга соф исломий ақидадан, ҳанафий мазҳабимиз асосларидан пухта таълим бериш, динимизнинг чинакам инсоний ғояларини халқимизга етказа оладиган малакали мутахассислар тайёрлашдир